

ONA TILI FANINI O'QITISHDA PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Zarina Fayziyeva Otabek qizi

Navoiy viloyati Navbahor tumani 10-umumiy o'rta
ta'lim maktabi ona tili adabiyot fani (metodika)

Annotatsiya:

Hozirgi kunda asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, adattiv, inkulyuziv va boshqa texnologiyalardir. Dars jarayonida bu texnologiyalarni tanlay bilish - bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Pedagogik texnologiya ta'limda o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishish, o'quvchilarning o'z fikrini bayon etishga imkoniyat yaratishdir. Pedagogik texnologiya jarayonida dars o'tishda eng asosiy talab o'quvchining hayotiy tajribasi, avval o'zlashtirgan bilimlari va qiziqishlari asosida bilim berishni ko'zda tutadi.

Kalit so'zlar: Ona tili,o'qitish metodikasi,pedagogik texnologiyalar,dars,ilm-fan,ijodiy fikrlash,tafakkur.

Abstract:

Currently, the main pedagogical technologies are imperial, cognitive, heuristic, creative, inversion, adaptive, inclusive and other technologies. Knowing how to choose these technologies during the lesson depends on the teacher's skills. Pedagogical technology in education is to engage students in education and to achieve full mastery of knowledge, to create an opportunity for students to express their opinions. The most important requirement in teaching in the process of pedagogical technology is providing knowledge based on the student's life experience, previously acquired knowledge and interests.

Keywords: mother tongue, teaching methodology, pedagogical technologies, lesson, science, creative thinking, thinking.

Аннотация:

В настоящее время основными педагогическими технологиями являются имперские, когнитивные, эвристические, творческие, инверсионные, адаптивные, инклюзивные и другие технологии. Умение выбирать эти



технологии на уроке зависит от умений учителя. Педагогическая технология в образовании заключается в том, чтобы вовлечь учащихся в процесс обучения и добиться полного овладения знаниями, создать возможность учащимся высказать свое мнение. Важнейшим требованием в обучении в процессе педагогической технологии является предоставление знаний, основанных на жизненном опыте студента, ранее приобретенных знаниях и интересах.

Ключевые слова: родной язык, методика обучения, педагогические технологии, урок, наука, творческое мышление, мышление.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan jamiki boyliklarni, bilimlarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turadi. Hayot taraqqiyoti va jamiyat rivojini shusiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu vazifani amalga oshirishning birdan-bir yo'li ta'lim tizimini tinmay takomillashtirib borish orqali yosh avlodni ilm-fan asoslari bilan chuqur qurollantirishdir. O'quvchi va talabalarni ona tili darslarida mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ular ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga intilish lozim. Shuning uchun yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchi va talabalarining nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi. Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Chunki til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o'quvchi va talabaning nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma'ruza orqali emas, balki nutq ko'rinishlarini tahlil qilish, so'z birikmasi va gap modellarini o'zlashtirish, esda saqlash orqali o'rganiladi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim. Pedagog - ya'ni bola yetaklovchi, bolaga faqat tayyor fikr bermasligi kerak balki uning fikrini kengaytirishi, olamni o'rganishga imkon beruvchi vositalarni topa bilishga o'rgatishi zarur. Biz bir necha zamonlar an'anaviy uslubda ish olib bordik. To'g'ri, bu tizimda



ham bolalarga billim berildi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari shakllantirildi. O'qituvchi ham o'quvchi ham bir qobiqda harakat qildi, buni qoliplangan tizim desak ham bo'ladi, har ikkalasida ham ma'suliyat yo'qoldi.

Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitishda quyidagilar ta'limning asosiy parametrlari hisoblanadi:

1. Butun o'quv vaziyati boshqarish ob'ekti sanaladi.
2. Ta'limni boshqarish maqsadli bo'lib, o'quvchining mohiyatli, ma'naviy va ruhiy kuchlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.[1]
3. Ta'lim jarayoni demokratik, rag'batlantiruvchi uslubda bajariladi.
4. Ta'lim jarayonining zaruriy sharti o'quvchining shaxsiy tashabbusini qo'llab quvvatlash, o'qituvchi shaxsinipg ochiqligi, ularning hamkorligi, o'zaro ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirishdir.

Ona tili darslarida pedagogik texnologiyalar o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lib, bular quyidagilardir:

1. Muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.
2. Umumiylar maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish.
3. Modul ichida echiladigan masalalarining' har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish.
4. Maqsadlarga etish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.[2]
5. Dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovation metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz.

1. Modulli ta'lim texnologiyasi. Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihatni o'r ganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlashiga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.



2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga o'rgatish, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinuvini vujudga keltirish.

3. Muammoli ta'lif texnologiyasi. Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni echishga qaratilgan muhokamani uyuştirish va xulosalarniig to'g'rilingini tasdiqlashdir.

4. Interfaol metod texnologiyasi. O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

5. Didaktik o'yinlar texnologiyasi. Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

6. Sinov darslari. O'quvchilarning ma'lum bilim va ko'nikmalarini sinash maqsadida o'tkaziladigan darslar bo'lib, ular test topshiriqlari yoki nazorat varaqlari orqali o'tkaziladi.

O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan o'zgacha bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar.

1. Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsada, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta 'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lif tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'rav ko'rsatmaliliginini ta 'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqe-a-hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tomonlari birbiri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bolagaplashish,



o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi. tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasalishiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning m a'nosini tushunishga yordam beradi.

Xulosa:

Yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lif jarayoniga olib kirish davr talabidir. Bu ish esa o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi ijodkor bo'lishi, yangi pedagogik texnologiyalarning xilma-xil shakllarini, usullarini yaratib borishi, ularni ta'lif jarayonida qo'llab borishi lozim. Ona tili dasturi va darsliklarida til materiallarining berilishi dars samaradorligi bilan uzviy bog'liqidir. Ma'lumki, uzoq davr mobaynida ona tili mashg'ulotlari dastur va darslik materiallari asosida tashkil qilindi. O'qituvchilar asosan darslik doirasida, uning materiallari asosida ishlashga odatlandilar. Buning bosh sababi ta'lif jarayonida deduksiya metodining ustivor bo'lganligidir. Bulardan ko'rindaniki, ma'lum bir bilimlarni egallash, malaka hosil qilish usuli ona tili mashg'ulotlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ona tili mashg'ulotlaridan kelib chiqadigan pirovard natija o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyazova M. - Hozirgi o'zbek adabiy tili [2020].[1]
- 2.Ona tili. 9-sinf (2014, N.Mahmudov, A.Nurmonov)[2]
- 3.Ona tili. 10-sinf (2017, N.Mahmudov, A.Sobirov)[3]
- 4.www.ziyonet.uz [4]
- 5.A.G'ulomov Ona tili o'qitish metodikasi Toshkent-2012[5]